

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Farg`ona viloyatining doimiy aholisi soni 2019 yil 1 iyul holatiga 3711,2 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 66,3 ming kishiga yoki 1,8 foiziorda o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 2097,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,5%), qishloq aholisi soni 1613,7 ming kishini (43,5 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2019 yil yanvar-iyun


Aholi soni **27,9 ming** kishiga ko`paydi.
Tirik tug'ilganlar soni **37,1 ming** nafarni tashkil etdi.
8,5 ming ta vafot etganlar qayd etildi.
Shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo'limlarida **10,6 ming** ta nikoh va **1,6 ming** ta ajralishlar ro'yxatga olindi.

Farg`ona viloyati aholisining umumiyo'sishi (2019 yil yanvar-iyun oylarida)



Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 iyul holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni Farg`ona shahrida 286,2 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi 7,7 %) va Quva tumanida 254,3 ming kishini (6,9 %), aksincha eng kam aholi soni Quvasoy shahrida 92,4 ming kishi (2,5 %) va So`x tumanida 76,6 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Bog'dod tumanida 2,9 % ni, Toshloq tumanida 2,4 % ni, Marg`ilon shahri va Oltiariq tumanida 1,8 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Quvasoy shahrida 0,3 % ni va Uchko'prik, Farg'ona tumanlarida 0,4 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2019 yil 1 iyul holatiga, ming kishi)



Demografik holat



Ma'lumot uchun:

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Tug'ilish. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 37,1 ming ta bola tug'ilganligi qayd bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olin-gan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,2 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,6 promillega ortgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Oltiariq tumani (17,9 promilledan 20,2 promillega) va Beshariq tumani (16,5 promilledan 18,0 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, deyarli barcha shahar va tumanlarda o'sish kuzatildi.

Shahar va tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni (yanvar-iyun, kishi)

	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati
Farg'ona viloyati	33471	37058	110,7
Farg'ona sh.	2104	2353	111,8
Qo'qon sh.	2243	2478	110,5
Quvasoy sh.	844	883	104,6
Marg'ilon sh.	2141	2415	112,8
Oltiariq	1814	2081	114,7
Qo'shtepa	1811	2015	111,3
Bag'dod	1910	2223	116,4
Buvayda	2047	2302	112,5
Beshariq	1800	1996	110,9
Quva	2169	2425	111,8
Uchko'prik	2297	2459	107,1
Rishton	1818	2016	110,9
So'x	517	561	108,5
Toshloq	1919	2185	113,9
O'zbekiston	2156	2343	108,7
Farg'ona	2144	2199	102,6
Dang'ara	1662	1852	111,4
Furqat	1058	1192	112,7
Yozyovon	1017	1080	106,2

Vafot etganlar. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 8,5 ming ta o'lim qayd etilgan bo'lib, barcha shahar, tumanlarda 2018 yilning mos davriga nisbatan ko'payish yuz ber-gan. 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,1promille-ga ortgan.

O'lim koeffitsiyentining sezilarli darajadagi ko'payishi Quvasoy shahri(4,5 promilledan 5,0 promillega), Oltiariq (4,0 promilledan 4,4 promillega), va Quva tumanlarida (4,1 promilledan 4,5 promillega) o'sgan.

Vafot etganlar



Erkaklar: Ayollar:
4,5 ming 4,0 ming
kishi **kishi**


Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni (yanvar-iyun, kishi)

	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati
Farg'ona viloyati	8122	8463	104,2
Farg'ona sh.	763	783	102,6
Qo'qon sh.	611	656	107,4
Quvasoy sh.	202	230	113,9
Marg'ilon sh.	567	626	110,4
Oltiariq	404	457	113,1
Qo'shtepa	405	446	110,1
Bag'dod	460	437	95,0
Buvayda	392	416	106,1
Beshariq	488	474	97,1
Quva	512	571	111,5
Uchko'prik	425	495	116,5
Rishton	409	408	99,8
So'x	125	133	106,4
Toshloq	411	414	100,7
O'zbekiston	536	493	92,0
Farg'ona	499	470	94,2
Dang'ara	393	440	112,0
Furqat	309	335	108,4
Yozyovon	211	179	84,8

2019 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 64,4 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 4,7 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 8,2 foizi o'simtalardan, 4,2 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 6,1 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,1 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,3 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 244 nafarni tashkil etib, ularning 36,9 foizi perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 20,9 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 26,6 foizi tug'ma anomaliyalardan, 5,7 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,7 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan va 4,2 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi



Tabiiy o'sish. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 28,6 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 3,3 minga (2018 yilning yanvar-iyun oylarida 25,3 ming kishi bo'lgan) o'sgan.




Nikoh. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo'limgari tomonidan 10639 ta nikoh qayd etilib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,8 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni bo'yicha 2018 yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'ati 95,3 foizga kamaygan bo'lib, O'zbekiston (kamayish sur'ati 82,0 foiz) va Beshariq (kamayish sur'ati 83,2 foiz) tumanlarida kamayish holatlari yuz berdi.

Hududlar kesimida nikoh tuzish koeffitsiyenti

(2019 yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan,promille)






Nikohdan ajralishlar. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida shahar, tuman hokimlik-larining FHDYO bo'limlari tomonidan 1578 ta nikohdan ajralish holatlari qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koef-fitsiyenti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni bo'yicha 2018 yilning mos davriga nisbatan kamayish sur'ati 91,5 foizga tushgan bo'lib, Yozyovon (59,5 foiz), va So'x (69,2 foiz)tumanlarida kamayish holatlari ku-zatilgan.

Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-iyun holatiga,1000 aholiga nisbatan,promille)



Demografik holat

Shahar va tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni (2019 yil yanvar-iyun, kishi)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>			<i>Nikohdan ajralishlar</i>		
	<i>2018 y.</i>	<i>2019 y.</i>	<i>o'sish sur'ati (%)</i>	<i>2018 y.</i>	<i>2019 y.</i>	<i>o'sish sur'ati (%)</i>
Farg'ona viloyati	11163	10639	95,3	1725	1578	91,5
Farg'ona sh.	707	782	110,6	206	228	110,7
Qo'qon sh.	824	801	97,2	191	176	92,1
Quvasoy sh.	240	231	96,3	52	54	103,8
Marg'ilon sh.	555	595	107,2	98	103	105,1
Oltiariq	656	579	88,3	76	74	97,4
Qo'shtepa	450	397	88,2	74	58	78,4
Bag'dod	685	608	88,8	86	85	98,8
Buvayda	630	549	87,1	80	69	86,3
Beshariq	839	698	83,2	97	88	90,7
Quva	816	768	94,1	107	80	74,8
Uchko'prik	654	696	106,4	63	62	98,4
Rishton	682	648	95,0	108	90	83,3
So'x	293	260	88,7	26	18	69,2
Toshloq	491	487	99,2	63	52	82,5
O'zbekiston	812	666	82,0	140	100	71,4
Farg'ona t.	618	669	108,3	82	101	123,2
Dang'ara	557	548	98,4	82	71	86,6
Furqat	400	405	101,3	57	47	82,5
Yozyovon	254	252	99,2	37	22	59,5

Dastlabki ma`lumotlarga qaraganda viloyatda doimiy aholi sonining milliy tarkibini bo`yicha ulushi eng yuqori ko`rsatkichi foiz xisobida O`zbek millati 89,5 foiz, Tojik millati 5,9 foiz, Qirg`iz millati 2,0 foiz, Rus millati 1,2 foiz va boshqa millatga mansublar 1,4 foizni tashkil etadi.



Millatlar



Migratsiya. 2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6519 kishini tashkil etdi



Aholi migratsiyasi (kishida)

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
Ko'chib kel-ganlar	6636	6519
Ko'chib ket-ganlar	7273	7220
Migratsiya sal-dosi	-637	-701



2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib ketganlar soni esa 7220 kishini tashkil etdi

Migratsiya saldosi minus 701 kishi bo'lib, 2018 yilning o'tgan shu davrida minus 637 kishi bo'lган.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'chib kelganlar soni 117 kishi, ko'chib ketganlar soni esa 53 kishiga kamaygan.

2019 yilning 6 oyi davomida migratsiya saldosining eng yuqori kamyish darajasi Quva tumani (minus 8 kishi) va eng yuqori o'sish darajasi Farg`ona (961 kishi) shaharlarda qayd etildi.